

**TA'LIM TIZIMIDA MNEMOTEXNIKADAN  
FOYDALANISH SAMARADORLIGI**

*Nasriyeva Dilafruz Muhiddinovna*

*Shofirkon qishloq xo'jaligi mahsulotlari texnologiyasi  
texnikumi maxsus fan o'qituvchisi*

**Annotasiya:** Bugungi kunda zamonaviy ta'limning turli yo'nalishlaridan foydalanilmoqda. Mnemonika texnikalarini dars jarayoniga tadbiq etish orqali o'quvchilarning ta'lim jarayoniga qiziqishini va berilayotgan ma'lumotlarni ortiqcha qiyinchiliksiz eslab qolinishiga erishish mumkin.

**Kalit so'zlar:** Mnemotexnika, xotira, natija, inson miyasi imkoniyatlari

Har qanday zamonda ta'lim tizimi davlatning eng asosiy masalasi hisoblangan. Chunki ta'lim tizimi mamlakatning iqtisodiyoti, sivilizatsiyasi, kelajagi uchun muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda respublikamizda ta'lim tizimidagi islohotlarning olib borilishi ham mamlakatimiz kelajagi uchun birinchi galdagi e'tibordan dalolatdir.

Hozirgi davrda pedagogikada innovatsion ta'lim usullarini, dasturiy texnik vositalarni qo'llashga alohida ahamiyat berilmoqda. Oldingi davrlarda o'qituvchilarning faqatgina zamonaviy bilimlar berishi talab qilinsa, hozirda ulardan tarbiyaviy, madaniy-ma'naviy, amaliy bilimlar berish ham talab qilinadi. Ya'ni, o'qituvchining faoliyati nafaqat ilmiy-amaliy asosda, balki ijodiy-artistik asosda ham amalga oshirilishi lozim. Ilm, fan va texnikaning jadal rivojlanib borishi, yangi texnika va texnologiyalarning jamiyatning barcha qatlamlariga kirib borishi, informatsion texnologiya vositalarining barcha davlat va nodavlat muassasalarida qo'llanilishi o'qituvchilardan uzluksiz bilim olish hamda kerakli bo'lgan dasturiy-texnik vositalarni o'zlashtirilishni talab qilayapti. O'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtirish va ta'lim sifatini oshirish maqsadida ko'plab metodologiyalar va o'qitish uslubiy qo'llanmalari ishlab chiqilmoqda. Mavzularni interaktiv tarzda komputer texnologiyalaridan foydalanib o'tkazish ta'lim sifatini oshirmoqda. Ammo, taklif etilayotgan metodikalarda o'quvchilarning psixologik holati va konsentratsiyasiga yetarli darajada e'tibor berilmaydi, ma'lumotlarni ma'lum vaqt intervalida takrorlash sust darajada. Hozirgi davrdagi ta'lim jaryonida darsni o'zlashtirish jarayoni qiziqarli bo'lishi mumkin, ammo tushunish va anglash o'qituvchi nuqtai nazaridan bo'ladi.

Barcha zamonlarning va mamlakatlarning olim hamda yetakchi mutaxassislari ta'lim jarayoni haqida ko'p yillardan buyon tadqiqotlar olib boradi. Shu o'rinda savol tug'iladi: Bizning bobokalonlarimiz axborot asrida yashamagan bo'lsalarda,

hech qanday texnologiyalarsiz yuksak natijalarga erishishgan. Misol uchun, Al – Forobiy 70dan ortiq tillarda bimalol gaplasha olgan, Al –Buxoriy 600 000 hadisni yoddan bilgan, Navoiy bobomiz esa 50 000dan ziyod baytni yod olganlar. Ibn Sino, Napoleon, Iskandar Zulqarnayn Bu qatorni hali ancha davom ettirsa bo'ladi. Bunday natijalarning asosida nimalar turibdi? Keling mushohada qilib ko'ramiz.

Birinchidan, o'sha davrdagi ustoz va shogird munosabati hozirgi o'qituvchi-o'quvchi munosabatidan anchagina farq qilgan. Ikkinchidan, axborot va ma'lumotlarning hozirgi kundagi hajmi ta'siri bo'lishi mumkin. Ya'ni o'quvchida telefon, televizor orqali keraksiz ma'lumotlar miyani qamrab olgan. Inson miyasining imkoniyatlari o'rganilganda esa yuqoridagi ikkinchi omilni osongina rad etish mumkin bo'ladi.

Deyl Karnegining ta'kidlashicha inson o'z miyasining ishlash jarayonini bilmagani uchun xotirasidan noliydi. Demak, inson o'z miyasining imkoniyatlaridan foydalanishni bilishi kerak. Qanday qilib?

Inson miyasi qabul qilish uchun murakkab bo'lgan har qanday ma'lumotlarni doimiy xotirada oson, qulay, tez usullar orqali saqlab qolishni o'rgatuvchi texnikalar to'plami mavjud. Bu mnemotexnikadir.

Mnemonika kecha, bugun yoki yaqin davr ichida paydo bo'lgan emas. Uning tarixi uzoq o'tmish bilan bog'liq. Yuqorida ta'kidlaganimiz, bobokalonlarimiz ham o'zlari bilmagan holda mnemotexnikalardan foydalanganlar. Yozuv va qog'ozdan foydalanish ommalshgach, mnemonika o'z o'rnini shpargalkalarga bo'shatib bergan. XIX-XX asrga kelib olimlar mnemonika mohiyatini va u naqadar zarurligini tushunib yetadilar va xotiramiz bilan bog'liq tadqiqotlar qiladilar.

Mnemonika har qanday qiyin bo'lgan raqamli va matnli ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida uzoq muddatli xotirada saqlashni o'rgatadi. Mnemonika diqqatni jamlash, raqamli va matnli ma'lumotlarni eslab qolish, nutq ravonligini oshirish, kreativlikni rivojlantirish, tarixiy sanalarni eslab qolish, chet tillarini o'rganishda so'z yodlashning samarali usullarini o'z ichiga oladi.

Dars jarayoniga mnemonik uslublarni integratsiya qilish orqali o'quvchilarning ta'lim jarayoniga qiziqishini va berilayotgan ma'lumotlarni ortiqcha qiyinchiliksiz eslab qolishga yordam beradi. O'quvchilarda obrazli fikrlash shakllanadi. Ulkan hajmdagi ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish va eslab qolish ko'nikmasi hosil bo'ladi. Yod olish jarayoni katta e'tiborni talab qilgani uchun o'quvchilarda ta'lim olish jarayoni bilan bog'liq stress kamayadi. Idrok etgan narsalarimiz iz qoldirmasdan yuqolib ketmaydi, ma'lum darajada esda olib qolinadi va qulay fursat yoki kerak bo'lganda esimizga tushadi.

Mnemonikaning kalendar texnikasi. Aytaylik, 2029 yilning 20 fevral sanasi kalendarning qaysi kuniga to'g'ri kelishini topishimiz kerak. Buning uchun yilni va oyni kodlab olamiz. 2029ni kodlash uchun oxirgi ikkita raqamni (29) 4ga bo'lamiz

(Bir yilda 4ta fasl bo'lgani uchun, deb esda saqlash mumkin) Natija (7)ni, qoldiqlariga e'tibor bermasdan, 29ga qo'shamiz.

$$7+29=36$$

Chiqqan natijadan 7ga karrali eng katta sonni ayiramiz.

$$36-35=1$$

Demak, 2029 yilning kodi 1 ekan.

Fevral oyining kodi hisob-kitoblarga ko'ra, 2 (Buni yilning ikkinchi oyi bo'lgani uchun, deb eslab qolsa bo'ladi)

Endi hamma kodlarni qo'shamiz:

2029yil 20 fevral

•+ 20 +2 = 23. Bundan 7ga karrali eng katta sonni ayiramiz.

23-21= 2 Bu haftaning ikkinchi kuni, ya'ni seshanbaga to'g'ri keladi

Bu texnikani o'quvchi osongina o'zlashtira oladi. Takror-takror shug'ulanish orqali samarali natijaga erishish mumkin

| <b>Mnemonikadan foydalanilgan dars samarasi</b>     | <b>An'anaviy dars samarasi</b>               |
|---|--|
| Konsentrasiya oshiriladi                            | Fikrlarni jamlash sust                       |
| Yaxshi kayfiyat                                     | Psixologik holatida zerikish kuzatiladi      |
| Ma'lumotlar 90 % eslab qolinadi                     | Olingan ma'lumotlarning 10 %i eslab qolinadi |
| Xotiradagi ma'lumotlar doimiy saqlab qolinadi.      | Bilim darajasi kutilgan natijani bermaydi    |
| Kreativlik rivojlantiriladi                         | Toliqish ham o'quvchida, ham o'qituvchida    |
| Ta'lim olish jarayoni bilan bog'liq stress kamayadi | Kuchli stress holati                         |

Mnemetexnikadan qaysi fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin? Kimyo fanidan Mendeleev davriy sistemasini yodlatish uchun o'qituvchi kamida 1 oy vaqt sarflaydi. Mnemetexnikalar orqali bir yoki ikkita darsdan so'ng o'quvchi davriy sistemadagi barcha elementlarni ketma ketligini buzmasdan aytib bera oladi. Chet tillarini o'rganishda eng qiyin masala lug'at yodlash hisoblanadi. Mnemetexnikadan foydalanib, bir kunda o'rtacha 200ta so'zni bemalol yodlay oladi. Fizika fanidan formulalarni eslab qolishda, Tarix fanidan tarixiy sanalarni, voqealarni eslab qolishda mnemonikadan samarali foydalanish mumkin. Matematika fanidan ham raqamlar kolonnasini yodda saqlash mumkin bo'ladi.

Mnemonikadan deyarli har bir fanda foydalanish mumkin. Buning uchun o'quv yili boshida Mnemonikaning asosiy texnikalari shunchaki tushuntiriladi,

xolos. Qolganini o'quvchining o'zi o'rganiladigan material yoki ma'lumotga qarab o'zlashtiraveradi. Bugungi kunda repetitorlik xizmatlari orqali salmoqli pul evaziga o'rgatiladigan mnemotexnikadan maktab ta'limida foydalanilsa, ilm yo'lida kutilgan natijaga yuqori saviyada va tezroq erishiladi

Mnemotexnika asosan tasavvurga tayanadi. Ya'ni inson o'zining miyasini maqsadli ravishda to'g'ri yo'naltira oladi. Birgina shu harakati orqali cheksiz bilimlar oqimini qabul qila olishi mumkin ekan. Ana shu harakatni bugungi kunda ta'lim tizimida joriy eta olsak, yuqori samaraga erishiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sh. Rahmanov, I. Sattibayev. So'z yodlash sirlari - T., - Istiqlol nuri, 2015.
2. S.Musamedov.Fenomenal xotira. – T., Yangi asr avlodi, 2016
3. Sh.Rahmonov. Mukammal xotira.-T., Yangi asr avlodi, 2014
4. Abdul Fattoh Abu G'udda. Ulamolar nazdida vaqtning qadri. –T., 2018